



TURISTIK DESTINATSIYALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH JARAYONIDA KO'P OMILLI MODELLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a67

Hamidov Saidjon Komilovich -
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada so'nggi yillarda milliy iqtisodiyot tarkibidagi tez sur'atlar bilan rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan turizm sohasidagi turistik destinatsiyalar faoliyatini boshqarish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida turistik destinatsiyalar faoliyatini tadqiq etish va rivojlantirish usullari tahlil etilib, hududlardagi turistik destinatsiyalarning o'tgan davrdagi faoliyatini ifodalovchi vaqtli qatorlarga tayanilgan holda ko'p omilli regression asosida kelgusi davrdagi o'zgarish yo'nalishlari baholangan. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan ko'p omilli modelning sifati baholanib, qisqa muddatli davr uchun prognoz ko'rsatkichlar aniqlangan. Tadqiqot natijasi sifatida mamlakatimizda turistik destinatsiyalar faoliyatini rivojlantirish va boshqarishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: turizm, destinatsiya, turistik destinatsiya, turistik destinatsiyalar faoliyati, turistik destinatsiyalar faoliyatini boshqarish, ko'p omilli regression model, boshqaruv ssenariylari.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МНОГОФАКТОРНЫХ МОДЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ТУРИСТСКИХ ДЕСТИНАЦИЙ

Хамидов Саиджон Комилович -
исследователь, Бухарский
государственный университет

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы управления деятельностью туристических дестинаций в сфере туризма, которые в последние годы имеют возможность развиваться быстрыми темпами в структуре национальной экономики. В ходе исследования были проанализированы методы исследования и развития деятельности туристических дестинаций и оценены направления изменений в следующем периоде на основе многофакторной регрессии, опираясь на временные ряды, представляющие деятельность туристических дестинаций в регионах за прошедший период. Одновременно было оценено качество разработанной многофакторной модели и определены прогнозные показатели на краткосрочный период. В результате проведенного исследования были определены приоритеты развития и управления деятельностью туристических дестинаций в стране.

Ключевые слова: туризм, дестинация, туристическая дестинация, деятельность туристических дестинаций, управление деятельностью туристических дестинаций, многофакторная регрессионная модель, сценарии управления.

PROSPECTS FOR THE USE OF MULTIFACTOR MODELS IN THE DEVELOPMENT AND MANAGEMENT OF TOURIST DESTINATIONS

Khamidov Saidjon Komilovich -
researcher, Bukhara State University

Abstract. The article discusses the mechanisms of managing the activities of tourist destinations in the field of tourism, which in recent years have the opportunity to develop rapidly in the structure of the national economy. In the course of the study, analyzed the methods of research and development of the activities of tourist destinations and evaluated the directions of changes in the next period on the basis of multifactor regression, based on time series representing the activities of tourist destinations in the regions over the past period. At the same time, evaluated the quality of the developed multifactor model and determined forecast indicators for the short-term period. As a result of the conducted research, determined priorities for the development and management of tourist destinations in the country.

Keywords: tourism, destination, tourist destination, activity of tourist destinations, management of tourist destinations, multivariate regression model, management scenarios.

Kirish. Turistik destinatsiyalar faoliyati rivojlanishining jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, faoliyat o'z tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligi hamda ushbu qismlarning samarali boshqaruvi bilan yetarli darajada rivojlana olmaydi. Mavjud tizimlar faoliyatida yuzaga keluvchi zaif tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan aksariyat muammolar (marketing strategiyasini shakllantirishda reklama faoliyatining zamonaviy usul va vositalaridan yetarli darajada foydalanmaslik, ichki tarmoqlararo munosabatlar-

ning rivojlanmaganligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi va shu kabilar)ni turistik destinatsiyalar faoliyati ishtirokchilari harakati bilan hal qilish imkoniyati cheklangan. Shu sababli faoliyat rivojlanshini yuqori turistik destinatsiya salohiyatiga ega bo'lgan hudud darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning unga bog'liq bo'lgan barcha tuzilmalari doirasida tashkil etish va boshqarish turistik destinatsiyalar faoliyati tarkibini tizimli yondashuv asosida o'rganmaslik natijasida yuzaga keluvchi yuqoridagi

masalalarni umumiy holda to'laqonli hal etish imkonini kengaytiradi.

Yuqori turistik destinatsiyalar salohiyatiga ega bo'lgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning turistik destinatsiyalar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tuzilmalari faoliyatini mavjud rekreatsion tizimlar faoliyati bilan uyg'unlashtirish turistik destinatsiyalar faoliyatini mamlakat (mintaqa yoki hudud) darajasida samarali faoliyat ko'rsatuvchi iqtisodiy tizim birligiga aylantiradi. Mamlakatimizda hududlarni mustaqil iqtisodiy birlik darajasiga aylantirish borasida olib borilayotgan tarkibiy o'zgarishlar natijasida mahalliy (viloyat, tuman, shahar) boshqaruv organlari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilash kompetensiyalarining ortib borishi e'tiborga olinadigan bo'lsa, yuqori turistik destinatsiyalar salohiyatiga ega bo'lgan hududlarda sohani taraqqiyotning yetakchi tarmog'iga aylantirish bugungi kundagi mahalliy davlat boshqaruv organlarining asosiy vazifalaridan biriga aylanishi lozim, chunki yaxshi daromad keltiruvchi, rivojlanish uchun yetarli salohiyatga ega turistik destinatsiyalar faoliyati qisqa vaqt ichida hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi markazlari ko'rinishidagi turistik destinatsiyalar faoliyati aglomeratsiyalarni shakllantiradi va bu, o'z navbatida, hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan kelib chiqqan holda tor yo'nalishlarda ixtisoslashuvini ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turistik destinatsiyalar faoliyatini mamlakatimizda rivojlantirish uchun, avvalo, uning asosi bo'lgan turistik salohiyat zaxiralari o'rganib chiqilishi, hududlararo va mintaqalararo rayonlashtirish hamda mavjud salohiyatdan samarali foydalanish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi zarur. Turistik xizmatlar bozorining ushbu sohasini rivojlantirishdagi birinchi vazifa – ana shu resurslardan samarali foydalanib, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun bu yo'nalishning nazariy asoslarini yaratish talab qilinadi.

Ilmiy adabiyotlarda destinatsiya atamasi noaniq talqinga ega. Destinatsiya tushunchasi, odatda, geografik nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi va ma'lum turistik resurslarga ega bo'lgan hudud sifatida belgilanadi. Bunday holda destinatsiya atamasi turistik mintaqa, turistik hudud tushunchasi bilan bir xil deb aytishimiz mumkin. Ushbu talqin mijozga yo'naltirilgan yondashuv bilan bog'liq bo'lgan manzilning asosiy xususiyatlarini aks ettirmaydi. Destinatsiya potensial mijoz uchun turistik jozibadorlik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi kerak.

Destinatsiya – turistlar uchun ma'lum bir jozibadorlikka ega bo'lgan va turistning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan xizmatlar to'plamini taklif qiladigan geografik hudud [1]. Destinatsiya – turistik oqim hosil bo'ladigan joy, ya'ni turistlar qidiradigan ma'lum bir joy (hudud, suv zonasi, makon). Shu ma'noda destinatsiya quyidagi savollarga javob beradi: qayerda? (qayerga?) va nima uchun?

Belgilangan manzil shuni ko'rsatadiki, turist sayohat davomida doimiy yashash joyini tark etib, o'zi rejalashtirgan yangi taassurotlar va hissiyotlarni olishga qiziqadi.

“Destinatsiya” tushunchasi birinchi marta turizmni o'rganishga tizimli yondashuv doirasida paydo bo'lgan. Turizm tizimi N.Leyperning umumiy qabul qilingan modeliga muvofiq kamida beshta o'zaro bog'liq elementlarning mavjudligini talab qiladi: turistlar; turistlarni yetkazib berish hududi; tranzit hudud; turistik yo'nalish; turistik industriya. N.Leyper turistik yo'nalishlarni “turistlar ma'lum hududning bir yoki bir nechta atributlari va xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan turistik tajriba (dam olish tajribasi) olish uchun bir muddat qolishni tanlagan joylar – o'ziga xos diqqatga sazovor joylar” deb ta'riflaydi [2].

Bir qator tadqiqotchilar K.J.Metelka [3], K.A.Gunn [4] destinatsiyani “odam sayohat qiladigan geografik hudud”, “sayyohlik bozori hududi” sifatida belgilaydi.

S.Medlikning fikricha, “turistlar tashrif buyuradigan mamlakatlar, mintaqalar, shaharlar va boshqa hududlar. Butun yil davomida ularning infratuzilmasi pul topish uchun kelgan rezidentlar va norezidentlarga xizmat qiladi va yil davomida vaqt xizmatlarning doimiy iste'molchilari – turistlar. Geografik birlikning sayyohlik yo'nalishi sifatida qanchalik muhimligi uchta asosiy omil bilan belgilanadi: diqqatga sazovor joylar, xizmat ko'rsatish va sayyohlik infratuzilmasi, kirish imkoniyati (odatda, geografik). Bu uch omil ba'zan “destinatsiyaning turistik fazilatlarini” deyiladi [5].

R.Devidson va R.Meytlend tadqiqotlarida destinatsiya “geografik chegaralarga ega ekanligi va “yagona tuman, shahar yoki aniq belgilangan va chegaradosh qishloq, qirg'oq yoki tog'li hudud” ekanligini ta'kidlaydilar [6].

S.S.Nikolayevning fikricha, turistik destinatsiya “turist yoki rekreatsion talabning butun segmenti tomonidan barcha zarur muassasalar, tashkilotlar, turar joy obyektlari, xizmatlar va ko'ngilochar infratuzilmaga ega bo'lgan sayohatning maqsadi sifatida tanlangan ijtimoiy-geografik hudud” sifatida belgilanadi [7].

V.A.Kvartalnov, I.V.Zorinning tadqiqotlarida turistik destinatsiya “turistlarni rekreatsion resurslar bilan jalb qiluvchi va turistlar uchun turar joy, transport, oziq-ovqat va o'yin-kulgi uchun sharoit yaratib beruvchi manzil” deb o'rganilgan [8].

Bizning fikrimizcha, turistik destinatsiya dam olish yoki sog'lomlashtirish uchun zarur bo'lgan maxsus obyektlar va xizmatlarning katta tarmog'iga ega bo'lgan hududdir. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, turistik destinatsiya mustaqil deb hisoblanishi va turistlar unda qolishlari uchun barcha zarur imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak, ya'ni bu turistik infratuzilma va xizmatlarga ega bo'lgan joyni turist

yoki turistlar guruhi tanlaydi va xizmatlar taklif etuvchi tomonidan sotiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda hududiy turistik destinatsiyalar faoliyatini rivojlantirish va boshqarishda ko'p omilli modellardan foydalanish monografik tadqiqot asosida nazariy va amaliy jihatdan keng o'rganib chiqildi. Ekonometrik tadqiqotlar asosida soha faoliyatini prognozlovchi korrelatsion-regression tahlil amalga oshirildi hamda soha faoliyatini rivojlantiruvchi ssenariylar ishlab chiqildi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, tahlil va sintez, korrelatsion-regression tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Turistik destinatsiya faoliyati va hudud ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqadorlikdan kelib chiqib, hudud taraqqiyotini kompleks rejalashtirish jarayonining har bir bosqichida soha faoliyatidagi muammolarni hisobga olish zarurati yuzaga keladi. Bu orqali hududning umumiy taraqqiyot strategiyasida turistik destinatsiya faoliyatining dominantligi ta'minlanadi. Ushbu holat natijasida hudud darajasida turistik destinatsiya faoliyatini rivojlantirish hamda boshqarish jarayonlaridagi mavjud muammoni o'rganish usulini tanlash bilan bog'liq masala yuzaga chiqadi [9].

Turistik destinatsiyalar faoliyati ko'p jihatdan tarmoqlararo kooperatsiyani taqozo qilishi natijasida sohani rivojlantirishga majmuaviy yondashish talab etiladi. Bu esa sohaning mohiyati va tarkibiy tuzilishiga mos ravishda faoliyatni boshqaruv obyektiga aylantiradi. Shu nuqtayi nazardan faoliyatni hududiy xo'jalik tizimi va uning tarkibiy tashkil etuvchilari sifatida tasavvur etishni taqozo qiladi.

Umumiy holda hududiy turistik destinatsiya tizimi salohiyatga ega hududda ixcham joylashgan, turistik xizmatlar bozoriga ishlovchi, tarmoqlararo kooperatsiya asosidagi mavjud infratuzilma va turistik resurslaridan foydalangan holda faoliyat ko'rsatuvchi turistik-rekreasiya korxonalaridan tashkil topadi. Turistik destinatsiyalar faoliyatini hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qabul qilish uning tarkibidagi tuzilmalar (turistik destinatsiya xizmatlari sohasi, infratuzilma, turistik resurslar, turistik destinatsiya salohiyati)ni mohiyat jihatidan yanada aniqlashtirishni talab etadi [10].

Jamiyatning bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos tendensiyalaridan biri mintaqaviy yoki hududiy doirada turistik destinatsiyalar tizimi kabi murakkab va yirik ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning shakllanishidir. Bunday yirik tizimlarning shakllanishi hal etilishi dolzarb bo'lgan keng qamrovli muammolarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Hududiy turistik destinatsiyalar faoliyatini an'anaviy miqdoriy modellar asosida tashkil etish va boshqarish mumkin emas. Bu murakkabliklar mazkur tizimning iqtisodiy tabiatiga ko'ra ko'plab turli-tuman elementlar va ular o'rtasidagi aloqalarining, noaniqliklar va risklarning mavjudligi, jarayonlar dinamikasi bo'yicha yetarli axborotning mavjud emasligi oqibatida paydo bo'ladi. Bunday o'ziga xosliklarning mavjudligi turistik destinatsiyalar faoliyatining tizim sifatidagi ko'p qirrali muammolarining zaif tarkibiy tuzilishga ega muammolar sirasiga kiritilishiga sabab bo'ladi [11].

Milliy turistik destinatsiyalar faoliyatida xizmatlardan foydalanuvchi turistlar soni o'zgarishini endogen omil sifatida olgan holda uning asosiy omil (resurs)lar ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ko'p omilli tahlil amalga oshirildi. Turistik destinatsiya xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar sonini funksiyaning yuqori cho'qqisi, ya'ni natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarini soha faoliyatidagi ekspertlar ishtirokida o'tkazilgan ekspert tahlili asosida tanlangan quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi (1-jadval):

X_1 – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi;

X_2 – turistik destinatsiyalardagi mavjud o'rinlar soni;

X_3 – aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromalar hajmi;

X_4 – aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi.

Endogen omil va unga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining mohiyati ko'riladigan bo'lsa, ta'sir etuvchi omillar sifatida kapital, resurs hamda xizmatlardan foydalanish darajasiga muhim ta'sirga ega bo'lgan omillarni ifodalovchi omil ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarish modeli ko'rinishidagi modelga yaqin bo'lgan bog'lanishga ega bo'ladi. Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar sonining o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlar EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2023-2025 yillarda turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar soni o'zgarishining istiqboldagi ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro'yxati keltirildi (2-jadval).

Aniqlangan ma'lumotlardan foydalangan holda turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar miqdori va unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi:

$$y = 0.00172 \cdot x_1 + 0.00602 \cdot x_2 + 0.06314 \cdot x_3 - 0.11821 \cdot x_4 + 122.539$$

O'zbekiston Respublikasida turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar soni va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari

Yillar	Turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar soni, ming nafar (Y)	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm (X1)	Turistik destinatsiyalardagi mavjud o'rinlar soni, birlik (X2)	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmi, ming so'm (X3)	Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi, ming so'm (X4)
2011	255,1	19500	16999	2264,8	1199,6
2012	275,7	24455,3	17228	2831,6	1490,7
2013	265,5	30490,1	18182	3142,1	1847,4
2014	291,6	37646,2	21350	3601,3	2211,9
2015	310,2	44810,4	22098	4805,2	2509
2016	334,8	51232,0	22215	5503,5	3047,3
2017	355,7	72155,2	22625	6227,8	3668,3
2018	426,6	124231,3	27293	7300,2	4578,5
2019	528,3	195927,3	28073	8963,7	5768,2
2020	448,6	202000,1	28109	9264,7	6393,2
2021	500,0	194293,4	29931	9900,1	6446,3
2022	527,4	215029,5	31297	10720,0	7023,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

(1)-regressiya tenglamasi tuzildi.

Dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lo-

zim. Aniqlangan trendda avtokorrelatsiya belgilangan optimal chegaradan biroz yuqoriligi ($DW=2.28$) va boshqa mezonlar bo'yicha talabga javob berganligidan yuqorida aniqlangan (1) - regressiya tenglamasi ishonchli deb topildi va adekvatligi isbotlandi.

Turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar soni va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining trend modellari hamda 2023-2025-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar va ularning omilli modellari	Prognoz ko'rsatkichlari		
	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar soni, ming nafar $y = 0.00172 \cdot x_1 + 0.00602 \cdot x_2 + 0.06314 \cdot x_3 - 0.11821 \cdot x_4 + 122,539$	554,8	582,2	609,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm $x_1 = 20736,12 \cdot t - 33803,9$	235765,7	256501,8	277237,9
Turistik destinatsiyalardagi mavjud o'rinlar soni, birlik $x_2 = 1366,07 \cdot t + 14903,8$	32663	34029	35395
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmi, ming so'm $x_3 = 819,93 \cdot t + 880,83$	11539,9	12359,9	13179,8
Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi, ming so'm $x_4 = 877,26 \cdot t + 96,48$	7600,9	8178,1	8755,4


Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ko'p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar sonining o'rta muddatda, ya'ni 2011-2025-yillarda o'zgarishi qiymatlarining grafikda ko'rinishi ifodalandi (1-rasm).

Tuzilgan ko'p omilli modeldagi o'zgaruvchilar koeffitsiyentlari asosida har bir omil qiymatining qo'shilgan bir birligi hisobiga natijaviy omil qiymatining qanchaga o'zgarishini baholashimiz mumkin. Jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining qo'shimcha 1 milliard so'mga ortishi turistik-rekreatsiya xizmatlaridan foydalanuvchi rekreatlar sonining 1720 birlikka, turistik destinatsiyalarda mavjud o'rinlar sonining 1000 birlikka ortishi natijaviy ko'rsatkichning 6020 birlikka orti-

shiga, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlarning 1000 so'mga ortishi natijaviy ko'rsatkichning 63 birlikka ortishiga hamda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining 1000 so'mga ortishi rekreatlar sonining 118 kishiga kamayishiga olib keladi.

Turistik destinatsiyalar faoliyatining rivojlantirishida eng muhim deb topilgan ko'rsatkichlarning natijaviy ko'rsatkichi hisoblangan turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar soniga omillar ta'siri asosidagi rivojlanish ssenariysi ishlab chiqildi. Aniqlangan trendlardan foydalanish sohaga kiritilayotgan resurs hajmini to'g'ri taqsimlagan holda resurs birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi [12].



1-rasm. Turistik-rekreatsiya xizmatlaridan foydalanuvchi rekreantlar soni ko'rsatkichining 2011-2025-yillarda o'zgarishi (ming kishi)

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan model asosida tuzildi.

Ko'p omilli bog'lanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda soha faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining tanlangan omillar ta'sirida ma'lum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda o'zgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi. Yuqoridagi hisob-kitoblar asosida aniqlangan ekonometrik modelning ahamiyati va uning parametrlari sifatini baholamasdan turib, modeldan

amaliyotda foydalanish katta xatoliklarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shuni e'tiborga olgan holda, turistik destinatsiyalar faoliyatida xizmatlar hajmini shakllantiruvchi turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar sonining o'zgarishi modelini, uning ahamiyati va model parametrlarining sifatini baholaymiz.

3-jadval

Omilling bog'lanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy ko'rsatkichlari

Dependent Variable: Turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar soni Y				
Method: Least Squares				
Date: 13/02/21 Time: 14:31				
Sample: 2011 2020				
Included observations: 10				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi X_1	0,001722	0,000526	3,275966	0,0221
Turistik destinatsiyalardagi mavjud o'rinlar soni X_2	0,006019	0,006035	0,997340	0,3644
Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmi X_3	0,063136	0,025137	2,511715	0,0537
Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi X_4	-0,118216	0,047027	-2,513814	0,0536
Tasodifiy omillar ta'sirini e'tiborga oluvchi qiymat C	122,5386	84,64866	1,447614	0,2074
R-squared	0.974951	Mean dependent VAR	349.2100	
Adjusted R-squared	0.954911	S.D. dependent VAR	90.85951	
S.E. of regression	19.29326	Akaike info criterion	9.064242	
Sum squared resid	1861.150	Schwarz criterion	9.215534	
Log likelihood	-40.32121	Hannan-Quinn criter.	8.898274	
F-statistic	48.65131	Durbin-Watson stat	2.283997	
Prob(F-statistic)	0.000341			

Manba: muallif tomonidan EViews10 dasturida hisoblash asosida ishlab chiqilgan.

Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko'rsatkichlari orqali baholangan (3-jadval). Dasturiy paket asosida amalga oshirilgan tahlil natijaviy omilning ta'sir etuvchi omillar bilan ko'plikdagi korrelatsiyasi $r=0,9874$ ra, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,9749$ ga teng ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'sir etuvchi omillar bilan natijaviy omilning

yuqori zichlikda korrelatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan ko'rsatkichlar bilan real ko'rsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bog'langanligini ko'rsatadi.

Jadvalda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar qiymatidan foydalangan holda tuzilgan ekonometrik modelning ahamiyati va parametrlari sifati baholanadi. Aniqlangan modeldagi endogen omil uchun Fisher mezoni qiymati 48,65 ga teng bo'lib, uning ahamiyati 0,000341 ga teng. Bundan ko'rinib turibdiki, tuzil-

gan trend modelini ahamiyat jihatidan amaliyotda qo'llash mumkin.

Model sifati dasturiy paket vositasida Akiake axborot mezon (9,06), Shvars mezon (9,22) va Xannan-Kuin mezon (8,90) orqali baholangan. Ushbu mezonlar qiymati ham trend modelini amaliyotda qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

Tuzilgan ekonometrik modelda avtokorrelatsiya yoki multikollinearlik mavjudligini aniqlash imkonini beruvchi Darbin-Uotson (DW) mezon 2,28 ga teng bo'lib, optimal chegara 2,0 atrofida ekanligi hisobga olinsa, modelning sifati nisbatan yuqori ekanligini, ya'ni avtokorrelatsiya darajasi deyarli mavjud emasligini ko'rish mumkin.

EViews10 dasturiy paketidan foydalangan holda milliy turistik destinatsiyalar faoliyatining ri-

$$y = 0.00172 \cdot x_1 + 0.00602 \cdot x_2 + 0.06314 \cdot x_3 - 0.11821 \cdot x_4 + 122.539$$

Tuzilgan trend modelidan foydalanishda tarmoqqa kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo'shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash resurs samaradorligini optimal ta'minlash imkonini beradi hamda tarmoqning muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida belgilangan vazifalar va amaliy natijalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar berildi:

hududiy turistik destinatsiyalar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini tanlash va qabul qilishning kompleks metodologiyasi asosida uzoq muddatli strategiyani shakllantirish;

– turistik destinatsiyalar faoliyatiga ichki va xorijiy investitsiyalarni muntazam va rejali jalb qilish asosida sohaning moddiy texnik bazasini kengaytirish va sohaga innovatsiyalarni keng jalb qilish;

– turistik destinatsiyalar hududlarida turizm klasterlarini barpo etish (O'zbekistonning barcha

vojanishi uchun asosiy tayanch ko'rsatkich hisoblangan turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar sonining ± 2 statistik xatolik chegaralarida o'zgarishi trendini shakllantiramiz hamda ushbu trendning ahamiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholaymiz [13,14].

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlar hamda ko'rsatkichlar qiymatlarini baholash asosida milliy turistik destinatsiyalar faoliyatini rivojlanishida eng muhim deb topilgan turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanuvchi turistlar soni va unga omillar ta'sirini hisobga olgan quyidagi trend modelini turistik destinatsiyalar xizmatlari sohasini kelgusi davrda rivojlantirish strategiyalari asosida ssenariylar ishlab chiqish jarayonida qo'llash mumkin.

mintaqa va hududlarida mavjud sanatoriyalar, pansionatlar va dam olish maskanlarida qo'shimcha ravishda turizmning barcha yo'nalishlarini qamrab oladigan turistik obyektlar majmuyini qurish va bu orqali hududga ichki va xalqaro turistlarni jalb etish);

– turizm klasterlari keng rivojlangan mintaqalarda "erkin turistik zonalar" tashkil etish;

– sog'lomlashtirish va dam olish, kurortlar tizimiga xorijiy sayyohlarni jalb qilish orqali rekreatsiya turizmiga e'tiborni kuchaytirish.

Turistik destinatsiyalar faoliyatini samarali boshqarish va rejalashtirish asosida mavjud turistik destinatsiyalar xizmatlaridan foydalanish darajasini maksimalashtirish va xizmatlar taklifini samarali tashkillashtirishda sohada samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish sohaning rivojlanish davrini yanada qisqartiradi. Bu esa soha faoliyatining yanada rivojlanishiga va hududlarning muvozanatli rivojlanishida yalpi hududiy mahsulot yaratilishidagi ulushi ortib borishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar

1. Морозов М.А., Морозова Н.С. Моделирование и прогнозирование развития туристских дестинаций. Сервис plus. 2014. Т. 8. № 3. С. 32-39.
2. Leiper N. *Tourism management*. / N.Leiper. 3rd edn. – Sidney: Pearson Education Australia, 2004. – 326 p.
3. Metelka C.J. *The dictionary of hospitality, travel and tourism*. / C.J.Metelka. 3rd edn. – Albany: Delmar Publishers, 1990. P. 46-50.
4. Gunn C.A. *Tourism planning: Basics, Concepts, Cases*. / C.A.Gunn, V.Turgut. 4th edn. – Routledge, 2002. – 464 p.
5. Medlik S. *Dictionary of travel, tourism and hospitality*. / S.Medlik. 2nd edn. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 1993. – 273 p.
6. Davidson R., Maitland R. *Tourism destinations*. / R.Davidson, R.Maitland. – London: Hodder & Stoughton, 1997. P. 4.
7. Николаев С.С. *Стратегия формирования единого туристского пространства. Автореферат дисс. канд. экон. наук.* – Санкт-Петербург, 2000.
8. Квартальнов В.А., Зорин И.В. *Энциклопедия туризма, 2000.*
9. Mirzaev A.T. Assessment of cluster formation in management of recreational activity. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 2020, 04 (84), 605-610. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.04.84.101>
10. Mirzaev A.T. The level of use of tourist attractions in the regions and the factors affecting them. // *Economics and Innovative Technologies: Vol. 2018: No. 3, Article 19*. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2018/iss3/19>
11. Мирзаев А.Т. Совершенствование интегральной оценки механизма рекреационно-туристических объектов. // *Бюллетень науки и практики*. 2019. Т. 5. № 2. С. 127-134. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/39/17>
12. Mirzaev A.T. Evaluation of innovation capacity resource components in effective management of recreational clusters on the basis of econometric analysis. // *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*. 2020. Pp. 131-137. <https://doi.org/10.36713/epra4790>.
13. Мирзаев А.Т. Оценка использования рекреационных возможностей на рынке туристических услуг. // *Региональная экономика: теория и практика*. 2019. Т. 17. № 5. С. 990-1002. <https://doi.org/10.24891/re.17.5.990>.
14. Mirzaev A.T. Estimation of the prospects for the use of recreational facilities in the market of tourism services. // *Наука сегодня: вызовы, перспективы и возможности [Текст]*. 2018. С. 76.